

## O'ZBEK SIGMENTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK (TOLERANTLIK)NING TA'SIRI

Qutliyev Shahbos Abbosovich

O'zbekiston milliy universiteti ijtimoiy gumanitar  
fanlarni o'qitish metodikasi 2-bosqich magistranti

### Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbek sigmentining ijtimoiy taraqqiyot jarayonida kishilar hayoti, faoliyatiga, tarbiyasi, dunyoqarashi va e'tiqodiga tolerantlikning turli davrlarda xilma-xil tarzda ta'siri yoritilgan. Shu bilan birga yoshlarda mafkuraviy immunitetning shakllanishida o'z-o'zini hurmatlash, qadrlash, murosa, o'zaro hurmat, sabr-toqat, chidamlilik, qanoat, shukr kabi fazilatlarining singdirilishdagi ahamiyatini aks ettiradi.

**Kalit so'zlar:** segment, tolerantlik, Globallashuv, Abu Sahl Masihiy, Abul Xayr Hammor, Ibn Iroq, din, buddaviylik, zardushtiylik, moniylik, nasroniylik va yaxudiylik.

### Kirish

Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida tolerantlikning (bag'rikenglik) ta'sirida ijtimoiy hayot doimo yuksalib kelgan. Tolerantlikning tarixiy ildizlari uzoq davrlarga borib taqaladi. Har bir davr taraqqiyot darajasi har hil bo'lganligi tufayli tolerantlik tamoyillari kishilarning ijtimoiy faoliyatida turlicha tarzda amal qilgan, ya'ni yo odamlar tolerantlik (ijobiy) tamoyillari negizida birlashib mamlakat taraqqiyotining yuksalishiga ijobiy ta'sir qilgan bo'lsa, tolerantlikni asos qilib olgan ba'zi yovuz quchlar birlashib mamlakatlarning inqiroziga sababchi bo'lgan, bu hodisalar o'tmishda ham, hozirgi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida ham sodir bo'lmoqda. Bu qonuniyatli jarayondir. Turlicha qarashlar, turli maqsadlar, turlicha manfaatlar ta'sirida sodir bo'ladi.

### Adabiyotlar tahlili

Qadim o'tmishdan buyon Vatanimiz xududida turli dinlar yoki ularning vakillari o'rtasida turli madaniyat mushtarakligi qo'llab-quvvatlanib kelingan. Masalan,



Kushon imperiyasi davrida zarb qilingan tangalarning bir tomonida budda dini – davlat rasmiy dinining ramzi bo’lsa, ikkinchi tomonida boshqa bir dinning ramzi aks etgan.<sup>1</sup> O’sha davr mamlakat xalqlarining turli vakillari ezgullik g’oyalari negizida birlashish asosida mamlakat qudratli davlatga aylangan. Masalan, IX-XII asrlar sharq mamlakatlaridan turli millat va din vakillari kelib Xorazm davlati Ma’mun akademyasida faoliyat ko’rsatgan. Tarixdan ma’lumki, Ma’mun akademyasida Abu Sahl Masihiy bilan Abul Xayr Hammor kabi buyuk xristian dini olimlari ishlagan. Shunisi diqqatga sazavorki, xristian olimi Abu Sahl Masihiy Beruniyning Ibn Iroqdan keyingi ikkinchi ustoz bo’lgan va Amir Temur o’z vaqtida Evropaga o’zining bosh elchisi sifatida Sultoniya cherkovi (Ozarbayjon)ning ruxoniysini jo’natgan. Shuningdek, Zaxriddin Muhammad Bobur podsholik qilgan davrda ham Hindistonda turli din va mazxabdagi xalqlar istiqomat qilgan. Bobur Mirzoning donoligi shundaki, u turli din vakillarini madaniyati taraqqiyoti yo’lida ma’naviyat sohasida oqilona munosabat o’rnatilishiga muyassar bo’lgan. Xususan, o’zining o’g’li Kamron Mirzoga yozgan maktubida davlatda ma’naviy madaniyatni kuchaytirish kerak ekanligini va turli dinlar hamda diniy oqimlar o’rtasida vujudga keladigan har qanday qarama-qarshiliklarni qoralaydi va buni bid’at deb hisoblaydi.<sup>2</sup> Masalan, o’sha paytlarda Hindistonda shunday bir ulug’vor ibodatxona qurdirganki, uning bir eshigidan musulmonlar, boshqa tomondan nasroniylar, boshqalaridan boshqa din vakillari bemalol kirib o’z sajdayu ibodatlarini erkin ado etish imkoniyatiga ega bo’lgan. Bu haqida Pirmqul Qodirov ham o’zining “Bobur” romanida Agra shahrida shu ibodatxonalarni qurdirgani haqida fikr yuritgan. Arab tarixchilarining yozishicha, Buxoroga islom dini kirib kelganda unda bir vaqtning o’zida buddaviylik, zardushtiylik va nasroniylik, moniy va shamanizm kabi din turlari amal qilgan va ularning tarafdorlari bir-biri bilan ahil, tinch-totuv bo’lib yashaganlar.<sup>3</sup>

Ayrim ma’lumotlar bo’yicha bir vaqtlar Termizda buddaviylik, zardushtiylik, moniylik, nasroniylik va yaxudiylik dinlariga mansub ibodatxona, cherkov, otashxona va kalisolar mavjud bo’lgan.<sup>4</sup>

<sup>1</sup> Juzjoniy A. “O’zbekiston ovozi”, –T.: 2006-yil, 2 dekabr

<sup>2</sup> Qudratillayev H. “Ibrat siyosati”, –T.: “Ma’rifat”, 2003-yil, 15 fevral.

<sup>3</sup> Juzjoniy A. “O’zbekiston ovozi”, –T.: 2006-yil, 2 dekabr.

<sup>4</sup> Odina A. Tug’i baland yerlar yurti. –T.: “Fidokor”, 2002-yil, 26 mart.



O'rta Osiyo xalqlari azal-azaldan o'zida tolerantlik tuyg'ulariga boy xalq hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridik, "Otabobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo'lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo'lsa, bugun ham ta'bir joiz bo'lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o'zi bizni – butun O'rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do'stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da'vat etmoqda".<sup>5</sup>

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati tobora shakllanishi jarayonida millatlar va xalqlar o'rtasida hamjixatlik asosida mamlakatimiz barqaror rivojlanib borayotganligi natijasida ular o'rtasidagi munosabatlarda bag'rikenglik qadriyat darajasiga ko'tarilib, mustahkamlanib bormoqda. Hozirgi davrda millatlarning o'zligini anglashga, o'z manfaatlarini himoya qilishga, urf-odat, an'ana va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni dunyo xalqlari o'rtasida ommalashtirishga qaratilgan harakatlari kuchayib borayotganligida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon qanchalik ijobiy bo'lmasin, o'z navbatida, turli millat va xalqlari o'rtasida o'zligini hamda manfaatlarini himoya qilishga bo'layotgan intilishlarida tolerantlik (bag'rikenglik) tuyg'ularining yanada takomillashtirib borishni hozirgi davr taraqqiyoti ta'qozo qilmoqda. Bugungi kunda dunyo miqiyosida yovuzlik, bag'ritoshlik, o'zining g'arazli g'oyalarini o'zgalarga singdirish yo'li bilan boshqa barcha xalqlar ustidan hukmronlik qilishga bo'lgan intilishlar kuchayib bormoqda. Natijada dunyoda murosasozlik, zo'rvonlik, terrorchilik, tojovuzkorlik, millatchilik, xalqlarning bir-biridan uzoqlashuvi, kam sonli milliy, etnik guruhlarini kamsitish xolatlarining tez-tez yuz berayotganligi mintaqaviy va xalqaro miqiyosida barqarorlikka va xavfsizlikka taxdid solmoqda. Hozirgi kunda bu jarayonlar ijtimoiy rivojlanish yo'lidagi eng xavfli to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda ISHID terroristlari Aydarbek Tulepov ta'kidlashicha, "Iroq va Shom islom davlatining tashkiloti "Xalifalik qurish" shiori ostida hokimiyatni qo'lga kiritishni maqsad qilgan. Bu tashkilot "xalifalik" idorosi bilan zo'rvonlik va zulm o'tkazish kabi ma'lum ishlarni qilmoqda. Hozirgi kundagi ISHIDning vahshiylarcha xarakati, musulmonlar va o'zga din vakillarini shafqatsizlarcha qatl qilishi ularning asil basharasini ochib berdi.

<sup>5</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch//–T.: "Ma'naviyat", 2008-yil, 10-bet.



Birgina 2013 yilda ISHID guruh xududida 10 mingdan ziyod terrorchilik xarakatlarni sodir etib, Xudqush terrorchilar esa, 80 ga yaqin portlatishni amalga oshirgan. Dunyodagi birorta uloma bu “davlatni” tan olmadi. 2014 yil sentyabr oyida dunyoga mashhur 126 nafar ulomalar qo‘poruvchi tashkilot boshchisiga ochiq xat yozdi. Unda ISHIDchilar amalga oshirayotgan xarakatlari Qur‘on va Xadisga tamoman zid ekani aytilib, insoniylikdan yiroq, manfur jinoyatlari qoralanadi.

Hozir ISHID tarkibida aldangan yoshlar juda ko‘p (ular tarkibida aldangan O‘zbekistonlik yoshlar ham mavjud). Ular “kofirlarga qarshi jehod qilyapmiz, orzumiz jannat” deyishayapti-ku, ammo musulmonlarni qatl etib, og‘ir gunohga botishayapti. Biz bunday nobakorliklarning oldini olishimiz kerak dedilar. ... ISHID islom dinini niqob qilib olib, o‘ziga xalifalik tuzishga urinmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, barcha musulmon davlatlarini yagona xalifalikka birlashtirish maqsadi xam xech aqlga sig‘maydigan safsatadir. Bunday soxta g‘oyalar tagida kir niyatlar ko‘zlanganini aslo esdan chiqarmaslik zarur”<sup>6</sup> deb ta‘kidlaydi.

Bu va boshqa muammolarni nazarda tutgan holda Sh.Mirziyoyevning “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat‘iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da‘vat etadi”<sup>7</sup>, — dedi.

### Natijalar tahlili

Insoniyat taraqqiyotida bunday salbiy xolat kuchayishining oldini olish, tamonlar manfaatlarini o‘zaro muvozanatga keltirish va barqaror taraqqiyotga keltirish hozirgi kunda juda murakkab kechmoqda. Insoniyat intellektual saloxiyati qanchalik rivojlanib borsa ularning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarining oshib borishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan sari ularning qalbiga tolerantlik (bag‘rikenglik) g‘oyalarini singdirish asosida barqaror taraqqiyotga erishiladi. Ijtimoiy taraqqiyotda fuqarolik jamiyatining barpo etish jarayonida “Bag‘rikenglik”, “diniy bag‘rikenglik” g‘oyalarini bilish uni mohiyatini anglash va yoshlarni barkamol ruxda tarbiyalash jarayonida foydalanish muhim axamiyat kasb etadi. Bag‘rikenglik tushunchasi

<sup>6</sup> Aydarbek Tulepov. Ishid fitnasi. –T.: “Movarounnahr” nashriyoti, 2015-yil, 4, 7, 17-betlar.

<sup>7</sup> Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasidagi nutqi. 2017-yil, 19-20 sentyabr.



“Bag’r” so’zidan kelib chiqqan. “Bag’r” so’zi asl ma’noda – inson tanasining bo’ynidan qoringacha bo’lgan qismi; ko’krak, ko’ks, to’sh; ko’chma ma’noda esa quchoq, himoya, panoh, yurak, qalb, dil kabi ma’nolarni anglatish uchun ishlatiladi. Shunga ko’ra, bag’rikenglik deb esa shaxs, elat, millat, xalqlarning biron bir narsaga nisbatan keng ko’lamda, chin dildan ochiq ko’ngillik bilan yondashishlariga aytiladi. Bag’rikenglik birinchidan, insoniy, oilaviy, milliy va umuminsoniy bag’rikenglik tarzida ko’zga tashlanib tursa; ikkinchidan, o’z-o’zini hurmatlash va qadrlash, murosa, o’zaro hurmat, sabr-toqat, chidamlilik, qanoat, shukr qilish kabi shakllarida namoyon bo’ladi va nihoyat, uchinchidan, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xalqaro va davlatlararo yo’nalishlarda faoliyat ko’rsatadi. Shunday qilib bag’rikenglik bor joyda qilingan gunohlar kechiriladi, ichki va tashqi ziddiyatlarning oldi olinadi, xayrli va savobli ishlarga qo’l urish uchun keng imkoniyatlar ochiladi, oilada totuvlik, insonning ma’naviy vujudida esa tansihatlik va xotirjamlik hukm sura boshlaydi, xalqlar va mamlakatlar o’rtasida o’zaro hamkorlik, qolaversa, do’stlik va birodarlik rishtalari tobora mustahkamlanib boraveradi.

Diniy bag’rikenglik xam ijtimoiy taraqqiyotda insonlarni ezgulik, yaxshilikka, tinchlikni qaror toptirishga safarbar qiladi.

Diniy bag’rikenglik deb xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo’lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g’oya va niyatlar yo’lida chin dildan ochiq ko’ngillik bilan hamkor va hamjihat bo’lib yashashini tarannum etuvchi fikrlar va amaliy xatti-harakatlar tizimiga aytiladi.

Bu g’oyani amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni:

- 1) e’tiqod va vijdon erkinligini har tomonlama ta’minlash;
- 2) barcha dinlar tomonidan ilgari surilayotgan g’oyalarning mantiqiy jihatdan mazmun-mohiyatini teran anglab olish asosida ish yuritish;
- 3) turli din va konfessiyalarning teng huquqligini e’tirof etish;
- 4) har xil din va konfessiyalarning bir-birlariga o’zaro hurmat bilan boqishlarini yo’lga qo’yish;
- 5) diniy-ma’naviy qadriyatlarni e’zozlash amaliyotini joriy etish;
- 6) barcha din vakillarining o’zaro hamkorlik va hamjihatlikda yashashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- 7) diniy qarashlarni majburan singdirishga yo’l qo’yimaslik;





8) barcha dindorlarning siyosiy jarayonlarda teng, fuqaro sifatida ishtirok etishini ta'minlash;

9) diniy partiyalar tuzib, dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l bermaslik;

10) dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;

11) diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik kabi bir qator ishlarni amalga oshirish talab etiladi.

Markaziy Osiyo xududida turli davlatlar, siyosiy kuchlar, diniy yo'nalishlar siyosiy maqsad hamda manfaatlarining o'zaro to'qnash kelishi O'zbekistonda diniy tolerantlik masalasida, uzoqni ko'zlagan, jamiyatdagi barcha millat, ijtimoiy guruh va din vakillarining manfaatlarini o'zida ifodalagan siyosatning olib borilishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston an'anaviy diniy bag'rikenglik o'lkasi bo'lib, davlatchiligimizning tarixiy taraqqiyotida xam, bugungi kunda xam diniy bag'rikenglik g'oyasi va tamoyili ijtimoiy xayotimizdagi muhim g'oya va tamoyillardan biri bo'lib kelmokda. Millatlararo totuvlik g'oyasi turli millat vakillari milliy tili, urf-odat va madaniyatlarining har tomonlama rivojlanishi hamda yuksalishini o'zida ifodalasa, dinlararo bag'rikenglik g'oyasi turli din vakillarining olijanob g'oya va niyatlar yo'lida o'zaro tinch-totuvlik, xurmat va e'tibor, yaxshi qo'shnichilik asosida faoliyat olib borishini o'zida ifodalaydi.

Globalashuv va jamiyat xayotida axborot texnologiyalari ta'sirining kuchayishi sharoitida diniy tolerantlik masalasiga e'tibor kuchaymoqda. Chunki jamiyat xayotiga axborot vositalari orqali turli yot va zararli g'oya hamda mafkuralarning kirib kelishi millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik va dinlararo bag'rikenglik jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xalkimiz diniy tolerantlik masalasida katta xayotiy tajribaga ega bo'lib, Vatanimiz tarixida xech qachon turli din vakillari o'rtasida diniy asosda kelishmovchilik va turli ziddiyatlar vujudga kelmagan.

Hozirgi paytda tez-tez ishlatilayotgan "tolerantlik" atamasi turlicha nuqtai nazarlar va mafkuralarning bir-biriga daxl etmasdan yashay olishi, o'zgalarning qarashlariga nisbatan xurmat, toqatlilik va bag'rikenglikni anglatadi. "Diniy bag'rikenglik g'oyasi - xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yulida hamkor va hamjixat bo'lib yashashdir"<sup>8</sup>. Hozirgi

<sup>8</sup> Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Ma'ruza matnlari uchun materiallar. –T.: 2001-yil, 138-bet.



zamonda diniy bag'rikenglik g'oyasi butun jamiyat a'zolarining tom ma'nodagi haqiqat, - ezgulik yo'lidagi xamkorligini nazarda tutadi xamda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili. Azal-azaldan yurtimizda turli dinga e'tiqod qiluvchi kishilarning yonma-yon yashab kelishi xalqimizning diniy bag'rikenglik borasida ulkan tajribaga ega ekanligini ko'rsatadi. Xalqimizga xos bo'lgan tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik kabi xislatlarini yanada mustahkamlash, rivojlantirish va yosh avlodga etkazish, ularda sabrbardoshlik, o'zga millat vakillariga nisbatan hayrixohlik, bahamjixatlik, tolerantlik madaniyatini shakllantirish lozim. "Sabr-bardoshlilik (tolerantlik), inson huquqi, demokratiya va tinchlik tushunchalari chambarchas bog'lik. Sabr-bardoshliliksiz demokratiya poydevori va inson huquqiga xurmatni mustahkamlash mumkin emas. Tinchlik sabr-bardoshliliksiz rivojlanish va demokratiya tinchliksiz mavjud bo'la olmaydi. Tolerantlik sabr-bardoshlilikning sinonimidir"<sup>9</sup>.

### Xulosa

Yuqorida zikr qilingan diniy bag'rikenglik g'oyasini amalga oshirish borasidagi chora-tadbirlar o'z vaqtida muntazam tarzda bajarilgandagina turli xil dinlarga e'tiqod qiluvchi dindorlar, ya'ni xudojo'ylar o'rtasida murosa falsafasi paydo bo'lib, ular ozod va abod Vatan, erkin va farovon hayot bunyod etish g'oyasini qo'llab quvvatlaydilar va uning ijobat bo'lishiga o'zlarining bor kuch-g'ayratlarini sarflaydilar.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Juzjoniy A. "O'zbekiston ovozi", –T.: 2006-yil, 2 dekabr
2. Qudratillayev H. "Ibrat siyosati", –T.: "Ma'rifat", 2003-yil , 15 fevral.
3. Odina A. Tug'i baland yerlar yurti. –T.: "Fidokor", 2002-yil, 26 mart.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch//–T.: "Ma'naviyat", 2008-yil, 10-bet.
5. Aydarbek Tulepov. Ishid fitnasi. –T.: "Movarounnahr" nashriyoti, 2015-yil, 4, 7, 17-betlar.

<sup>9</sup> Юнусова А. Междурелигиозное согласие и строительство демократического и правового государства в Республики Узбекистан. Материалы международной конференции "Межрелигиозное согласие – важное условие углубления демократических процессов в странах центральной Азии". –Т.: 2002. Фонд им. Конрада Аденауэра . Ташкентский исламский университет.



6. Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasidagi nutqi. 2017-yil, 19-20 sentyabr.
7. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Ma'ruza matnlari uchun materiallar. –T.: 2001-yil, 138-bet.
8. Юнусова А. Междурелигиозное согласие и строительство демократического и правового государства в Республики Узбекистан. Материалы международной конференции “Межрелигиозное согласие – важное условие углубления демократических процессов в странах центральной Азии”. –Т.: 2002. Фонд им. Конрада Аденауэра . Ташкентский исламский университет.

